

Dilnoza TURSUNMURATOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: dilnoza.turamuratovna@mail.com
Tel.: +998 97 170 05 68

O'zMU dotsenti, f.f.d.(DSc) G.Kurbonova taqrizi asosida

BADIIY MATN TARJIMASIDA LISONIY VOSITALARNING O'RNI

Annotatsiya

Mazkur maqolada fransuz yozuvchisi Sharl Lui Monteskyening "Les Lettres persanes" ("Fors nomalari") asari va uning o'zbek tilidagi tarjimasida lisoniy vositalar hermenevtik yondashuv asosida o'rganiladi. Unda tarjimonning tarjima tili vositalaridan asliyat tilining semantik, emotsional-ekspressiv axborotini o'zlashtirishdagi muhim ahamiyati aniqlanadi. Mazkur axborot yetkazuvchi vositalaridan biri sifatida stilistik figuralar ushbu asardan olingan misollar orqali tahlil etiladi. Tarjimaning eksplitsit va imlitsit transformatsiya usullari tarjima jarayonida adekvatlikka erishish usuli sifatida aniqlangan.

Kalit so'zlar: Tarjima, hermenevtik yondashuv, lisoniy vositalar, matn axboroti asliyat va tarjima tili, badiiy tarjima.

РОЛЬ ЯЗЫКОВЫХ СРЕДСТВ ПРИ ПЕРЕВОДЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА

Аннотация

В данной статье на основе герменевтического подхода изучается произведение французского писателя Шарля Луи Монтескье "Les Lettres persanes" ("Персидские номы") и его перевод на узбекский язык, лингвистические средства. В нем определяется важная роль переводчика в получении семантической, эмоционально-экспрессивной информации языка оригинала из средств языка перевода. Как одно из средств передачи информации, о котором идет речь, стилистические фигуры анализируются на примерах из этой работы. Методы эксплицит и имплицит трансформации и перевода были определены как способ достижения адекватности в процессе перевода.

Ключевые слова: Перевод, герменевтический подход, лингвистические средства, текстовая информация, язык оригинала и перевода, художественный перевод.

THE ROLE OF LINGUISTIC MEANS IN THE TRANSLATION OF ARTISTIC TEXT

Annotation

This article examines the work of French writer Charles Louis Montesquieu "Les Lettres persanes" ("Persian Nomes") and its translation into Uzbek, linguistic means, on the basis of a hermeneutic approach. It defines the important role of the translator in obtaining semantic, emotional and expressive information of the original language from the means of the translation language. As one of the media in question, stylistic figures are analyzed using examples from this work. The methods of explicit and implicit transformation and translation have been identified as a way to achieve adequacy in the translation process.

Key words: Translation, hermeneutic approach, linguistic tools, text information, original and translation language, artistic translation.

Kirish. Agar badiiy asar jumlasining ma'nosi faqatgina moddiy so'z formasida mavjud bo'lmasdan fikr-mulohaza, tushuncha birligida obrazli, emotsiyalarni namoyon etuvchi "ideal" shaklda bo'lsa, unda o'zlashtirilgan original jumlaning ikkinchi bosqichga tarjima tilida qayta yaratuvchi tarjima jarayoniga o'tkazadi. Shuningdek, tarjimonning ongida boshqa so'z shakli materialini ma'nosini qayta analiz va sintez qilishdek murakkab jarayon sodir bo'ladi. Ikkinchi bosqich ham ikkita turdan iborat bo'ladi: qayta ifodalash va aynan o'xshatish.

Tarjimon tarjima tili vositalari asosida asliyat matnining semantik va emotsional-ekspressiv axborotini o'zlashtirib, uning to'liq hajmini saqlagan holda qayta yaratadi. Biroq har bir so'z va iboraning ma'nosi boshlang'ich jumla bilan to'liq mos kelmaydi, tarjimada uning ma'nosi qayta ifodalanaadi. "Har qanday tilda jumlaning ma'nosi alohida olingan so'z va so'z birikmalaridan tashkil topgan bo'ladi, shuningdek, tillar orasidagi o'aro muvofiqlik obyektiv ma'lumotlar, universal dalillar hisoblanadi, matnning asliyati va tarjimasini solishtirganda, birinchi navbatda, tillararo leksik muvofiqlik aniqlanadi, har qanday tarjima ana shunday muvofiqlik asosida amalga oshiriladi. Asliyatni qayta ifodalash bosqichi tugaganidan so'ng, tarjimini badiiy bixillashtirish bosqichi boshlanadi" [7]. Tarjima matnini bunday qayta ishlash asliyatning ma'nosiga, funksional-uslubiy va g'oyaviy-badiiy mazmuniga ko'ra aynan o'xshash, adekvat badiiy tarjimini tarjima tilida yaratishga olib keladi. Bu bosqichda tarjima va asliyatdagi frazalar, abzatslar, davrlar sinchkovlik bilan solishtiriladi. Mana shunday solishtirish jarayonida tarjimonlik mashaqqatli yuzaga keladi, ya'ni keraksiz so'zlarni olib tashlash, funksional-uslubiy va janrning o'zaro muvofiq kelishi, realiya va so'z o'yinlarining berilishi, badiiy adabiyotda mavjud an'anaga muvofiq tarjimonning sintaktik tasviri va uning yakuniy jilosi aniqlashtiriladi. Bu davrda asliyat matnining hajmi, til va adabiy murakkabligi, tarjimonning qobiliyati va tajribasi tarjima matni qoralanmasining davomiylik muddatini belgilaydi.

Badiiy tarjimaning asosiy mezonlaridan biri asar muallifining individual uslubining saqlanishidir. Bugungi globallashuv davrida madaniyatlararo muloqotning kuchayishida xorijiy tillarni o'rganishga e'tibor kuchayganligi bois badiiy tarjimaning madaniy axborotni yetkazish funksiyasi o'rniga ijodiy funksiyasi kuchayib bormoqda, ya'ni tarjima matnining badiiy mahoratga ega bo'lishi, o'quvchiga badiiy-estetik ta'sir o'tkaza olishi nihoyatda muhim sanaladi. Chunki original tarjima o'quvchi tomonidan deyarli ona tilidagi matn sifatida qabul qilinadi. Shuning uchun ham tarjimon badiiy asarni tarjima qilar ekan, yozuvchining individual uslubini, u qo'llagan badiiy janr uslubi va lingvistik vositalarning estetik jihatlarini to'liq tushunishi lozim. L.Timofeyevning fikricha, badiiy uslub "yozuvchining shaxsiy tajribasi, iqtidori va yozish usulidir"[3]. Individual uslub tushunchasi badiiy adabiyotni lingvistik o'rganishda tarxiy kelib chiqishga asoslangan, tuzilishi jihatdan ichki semantik mazmunga ega badiiy ifoda vositalari va shakllarining boshlang'ich asosi hisoblanadi. Badiiy adabiyotda badiiy tizim usullari orqali yaratilgan individual yoki shaxsiy uslub dominant hisoblanadi va u, tabiiyki, yaratilgan asar muallifiga tegishli bo'ladi. Demak, badiiy asar tarjimonining vazifasi asliyat o'quvchisi boshdan kechirgan his-tuyg'ulari va assotsiatsiyalarini uyg'otadigan adekvat obrazlarni yaratishdan iborat bo'ladi. Bu esa tarjimondan asar uslubi va muallifning individual uslubini saqlagan holda badiiy tarjima nazariyasining markaziy masalasidan biri bo'lgan asliyatning g'oyaviy-badiiy mohiyatiga imkon qadar yaqin bo'lgan, asliyat kabi o'qiladigan va asarning mazmunini saqlab qoladigan asar yaratish mas'uliyatini talab etadi.

Tarjima amaliyotidan ma'lumki, asliyat matnini tarjima matniga transformatsiya qilish ham deformatsiya qilish ham ratsional tarjima jarayoni sifatida amalga oshiriladi. Tarjimada matnning deformatsiyaga uchrashi, birinchi navbatda, tarjimonning tarjimoni hech qanday yo'qotishlarsiz amalga oshirish mumkin emasligini anglashi bilan bog'liq bo'ladi.

A.D.Shveytserning ta'kidlashicha, har safar matnga keraksiz so'zlarni qo'shish, tarjimada sinonimlarning tez-tez qo'llanilishi asar tilini sun'iy tarzda boyitadi. Bunday qo'shimchalar qo'shish nafaqat yo'l qo'yib bo'lmaydigan uslubiy xatolarni yuzaga keltiradi, balki asar uslubining buzilishiga olib keladi [4]. Tarjimonni asliyat matnini deformatsiya qilishga, asar tilining qashshoqlashishiga majbur qiluvchi muhim sabablardan yana biri asl matndagi assimetrik xarakterdagi fonetik, semantik va madaniy-assosiativ xususiyatlarning to'qnashuvini ifoda etuvchi so'z o'yinining qo'llanilishi bilan bog'liq. Shuning uchun ham har qanday badiiy asar tarjimasini asar yaratilgan davr va tarjima yaratilgan davrni bog'liq holda tarixiylik prinsipi asosida o'rganish zarur. Bunda tilning doimiy rivojlanish xususiyatlari, tarjimon dialektikasi va kitobxonning madaniy saviyasi muvaffaqiyatli tarjima kaliti bo'la oladi.

Badiiy tarjimada mazmun eksplikatsiyasining turli ko'rinishlari so'zni yanada yorqinroq, yanada ochiqroq ifodasi uchun muhim. Masalan, fikrning to'g'ri berilishi uning ko'chma ma'nosi ishorasiga bog'liq bo'ladi. Fikrning to'g'ridan-to'g'ri berilishi demetaforizatsiya deyiladi, ya'ni metaforik usulda qo'llanilgan so'zni boshqa qiyoslash usuli bilan almashtirish tushuniladi Tarjima matnida zarur bo'lgan holda metaforik mazmun planini saqlash maqsadga muvofiq sanaladi.

Shuningdek, yozuvchi va tarjimon matn mazmunini o'quvchiga yetkazishda ularning fon bilimlariga suyanadi. Masalan, Bugungi kunda marsliklar haqidagi tasavvurlar real haqiqatga aylanib dunyoni hayratga solgani singari Monteskening "Fors nomalari" asari qahramoni O'zbekning XVIII asrda Parijga kelishi va yozuvchining jamiyat illatlarini chet ellik ko'zi bilan keskin tanqid ostiga olishi natijasida fransuz tilida emotsional bo'yoqdorlikka ega bo'lgan Comment peut-on être Persan? frazeologik birligi o'zbek tilidan so'zma-so'z o'g'irganda: Qanday qilib eronlik bo'lish mumkin-a[8]? ma'nosida "ko'z ko'rib quloq eshitmagan voqelik"[1] ka nisbatan hayratlanish ma'nosini anglatadi. Mazkur ibora yevropaliklarning sharq xalqlariga nisbatan qiziqishini ifodalashi bilan e'tiborli. Tarjimon mazkur ibora tarjimasini so'zma-so'z ifodalalar ekan, muallif uslubini yetkazishda o'quvchining fon bilimlariga suyanib ish ko'radi.

Quyida asliyat va tarjima tilida qahramon nutqi eksplitsit tarzda ifodalangan, asliyatda: Reviens donc, magnifique Seigneur, reviens dans ces lieux porter partout les marques de ton empire. Viens adoucir des passions désespérées: viens ôter tout prétexte de faillir; viens apaiser l'amour qui murmure, et rendre le devoir même aimable... tarjimada: Illo, tezroq qayt, beqiyos xo'jayin, hukmingni o'tkazish uchun mulkingga qaytib kel. Umidsizlikka tushayotgan ehtiroslarni jilovlash, itoatsizlik uchun barcha bahonalarni yo'qqa chiqarish, shivirlayotgan muhabbatni qondirish, itoatni bajonu dil ijro etiladigan vazifaga aylantirish...(97-maktab). Agarda matn ma'nosi so'zma-so'z berilganda asliyatdagi nutqiy meyor buzilishi, o'quvchi tafakkurida madaniyatlararo to'siq hosil qilardi. Shuning uchun ham tarjimon asl manbadagi g'oyani kitobxonga yetkazishda reflektiv yondashib aytilmoqchi bo'lgan fikr mohiyatini ifodalashda ma'no izchilligini to'g'ri qo'llash uchun "Illo", "beqiyos", "mulkingga" ehtiroslarni jilovlash", "shivirlayotgan muhabbatni qondirish" shaklidagi sifatlash, metafora kabi ekspressiv uslubiy vositalardan unumli foydalangan.

Adibning 24-xatida bir oydan beri Parijda istiqomat qilayotgan sharqlik Rikaning nuqtai nazaridan shahar urf-odatlari, saroy, fransuz qirollari Lui XIV va Klemon XI tasvirlanadi. Uning tahlili orqali biz Monteskening fransuz jamiyatini tanqid ostiga olgan qarashlarini kuzatamiz. U sharq va g'arbni solishtirishda qiyoslash, metonimiya, metafora va parafrazadan o'rinli foydalanadi. Fransuz tilida bugungi kunda ham mashhur bo'lgan: Paris est aussi grand qu'Isphahan, j'enrage comme un chrétien, le pas réglé de nos chameaux, les voitures lentes d'Asie kabi iboralar o'zbek tilida "Parij ham Isfaxon singari katta shahar", "nasroniy yanglig' g'azabim toshadi, Osiyoning sekin ulovlarini, tuyalarimizni sekin yurishini ko'rsalar" kabi qiyoslashlar asliyat tilidagi metaforik uslubni sharqliklarga xos tushuncha tarzida qayta yaratadi. Muallif XVIII asrda sharqliklarning transport vositasini yevropaliklar xos tushuncha nuqtai nazaridan tasvirlaydi. Tarjimon esa tuyani mashina emas, ulov tarzida qo'llab tarjima tilining obrazlilikini saqlab qolgan.

Rika parijliklarning g'ayrioddiy hayot tarzini chuqurroq tasvirlaganda hayratlanishini yanada kuchaytiradi. Yozuvchining "...ils courent, ils volent", "...une ville bâtie en l'air" komik effektga ega mubolag'a uslubiy o'zbek tili strukturasi muvofiq tasavvurga sig'dirish qiyin holat tarzida "ular uchadilar, yuguradilar", "havoda muallaq turgan misol.....uylardan iborat..." kabi metaforalar bilan jumalalarda o'z o'rinida qo'llanilgan. O'zbekning hayratlanishi, mubolag'a vositasini ifodalovchi kuchaytiruvchi ravish ishlatilishi bilan oshadi. Matnda qo'llanilgan mubolag'a elementlari "Si... que", "extrêmement" so'zlari va croire fe'li ishtirokida "tu ne le croiras peut-être pas", "ne crois pas que" "Ce que je te dis de ce prince ne doit pas t'étonner"; o'zbek tilida: "shunchalik.....o'ta", "balki ishonmassan", "... o'ylama" "Bu hukmdor borasida aytganlarim seni ajablantirmasin" jumalalarida tarjima tilining leksik imkoniyatlari orqali tarjima variantlilikini yuzaga keltirgan.

Yozuvchi Rikaning nutqida Fransiyadagi uzoq davom etadigan qirolik taxti va uning davlat boshqaruvida cherkovning aralashuvini ta'riflashda metafora stilistik uslubidan keng foydalanadi, masalan, fransuz tilidagi "par un prodige", "ce roi est un grand magicien", "ce magicien s'appelle le pape" iboralari o'zbek tilida "...mo'jizasi tufayli", "bu qirol buyuk afsungar", "Bu afsungarning oti Papadir. Tarjimon tomonidan turdosh semantik ma'noga ega "le pape" so'zi orqali yozuvchi Rim Papasini nazarda tutayotganligi haqida qo'shimcha izoh beriladi.

XVIII asr ma'rifatchiligi o'z zamondoshlari ongini aql va bilim bilan boyitishga harakat qilganlar. Didro, Russo, Volter va Monteskye kabi faylasuflar o'z g'oyalarini yanada kengroq yoyish uchun turli xil badiiy vositalardan foydalanganlar.

Asarning 30-xatida Rikaning Parij ko'chasi bo'ylab kuzatuvchi Monteskye nuqtai nazaridan chet ellik ko'zi bilan keskin yumor ostiga olingan. Rikaning ekzotik kiyimlari ko'chadagilarga qiziqish ortirsa, Yevropa uslubida kiyinishi boshqalar e'tiborini tortmasligi bilan bog'liq. Unda qo'llanilgan "une curiosité extravagante" – "haddan ortiq qiziquvchan" jumlasidagi extravagante sifati mubolag'a uslubiy vositasini ifodalaydi. Rika uchun parijliklarning qiziqishini tushuntirib bo'lmaydi. Ikkinchi gapda "vieillards, hommes, femmes, enfants" - "keksalar, erlar, ayollar, bolalar" gradunomiyasi "comme si j'avais été envoyé du ciel" "menga go'yo osmoni falakdan kelgan elchidek qarashardi" mubolag'asi mazmuni bilan bog'liq. "Si je sortais...si, j'étais...si j'étais" "agarda ko'chaga chiqadigan bo'lsam hamma derazasiga yugurardi. Bu gapda takror qo'llanilishi anafora stilistik figurasini yuzaga keltiradi, "si" oldingi fikrni tasdiqlash ma'nosida ishlatiladi. Keyingi gapda mubolag'a stilistik figuralar qo'llanilgan: enfin, jamais homme n'a tant été vu que moi" –qisqasi, bironta erkakka menga qaraganday qarashmagan; "partout...dans toutes les boutiques, sur toutes les cheminées..." – barcha do'konlarda, barcha kaminlarda suratimni ko'raman. Keyingi jumladagi "néant affreux" mubolag'asi o'zbek tilida "oddiy g'arib" iborasi orqali sifatlash uslubiy bo'yoqdorligi orqali qayta yaratilgan.

Tarjimon falsafiy matnlar tarjimasida germeneytik yondashuvsiz va hech qanday yo‘qotishlarsiz tarjima qilish mumkin emasligini anglab, so‘z o‘yini asl nusxa muallifiga tanish va juda tez-tez uchraydigan stilistik uslub ekanligiga ishonch hosil qilgan holda stilistik figuralarning tarjimada tushirib qoldirilishi tarjima matnini qashshoqlashtirgan bo‘lsa-da, matnni buzib ko‘rsatmaydi, degan xulosaga keladi. Quyida muhokama qilinadigan uslubiy vositlar transformatsiyasidagi deformatsiyalar tarjimon faoliyati izchilligining mohiyatini anglatadi.

99-maktub turli xil ko‘ngilocharliklar ramzi bo‘lgan Parijdan Venetsiyaga yuborilgan bo‘lib, unda Parij moda olami timsolida Yevropa jamiyatining hayot tarziga xos illatlar, keskin satira ostiga olinadi. Birinchi satrda qo‘llanilgan *je trouve fe’li* yangi dunyoni kuzatishga qarashini va sayohat haqida eslatish ma‘nosini ifodalasa, *étonnants* sifati *chez les Français* o‘rin to‘ldiruvchi holini noodatiy tarzda to‘ldiradi, fransuz tilida: *Je trouve les caprices de la mode, chez les Français, étonnants*. Tarjimada mazkur fe‘l tushirib qoldirilgan, uning mazmuni kontekstga singdirilgan va sifatning ta‘sir ma‘nosi kuchaytirilgan: Fransuzlarda moda injiqliklari hayratlanarli darajada.

Maktubda parallel konstruksiyaning qo‘llanilishi moda o‘zgaruvchanligiga ishora qiladi. Fransuz tilida.....ils ont oublié comment ils étaient habillés cet été/ils ignorent encore plus le feront en hiver. *Été/hiver* antitezasi Parij modasining vaqtga qarab o‘zgarishini ifodalasa, ils kishilik olmoshi butun fransuz xalqining ko‘r-ko‘rona yangi urf bo‘lgan moda orqasidan ergashishi keskin tanqid ostiga olinishini tasvirlaydi. Tarjimon ushbu mantiqiy fikr tarjimasida sintaktik transformatsiya usulidan unumli foydalanadi. Tarjimada: ...ular shu bu yilgi yozda qanday kiyinganlarini unutib qo‘yadilar va yaqinlashib kelayotgan qishda nima kiyishlarini tasavvur qilmaydilar.

Combien il en coûte à un mari jumlasida Il shaxsiz fe‘lining qo‘llanilishi ayollarning modaga g‘oyatda berilishini va insonlar taqdirini moda hal qilishini ifodalaydi. Tarjimada shaxsiz fe‘l “erkak kishiga qanchaga tushishiga hech kim ishonmaydi” jumlasida kommunikativ maqsadni ifodalaydi va to‘liq konstruksiyali gap ko‘rinishini hosil qiladi. Shuningdek, Monteskye XVIII asrda moda ko‘rinishini ta‘riflashda “mouche” 1)pashsha; 2) yasama xol; 3) sidirg‘a matoga tikilgan chakma gul[5] kabi polisemik ma‘noga ega so‘zlarni qo‘llaydi, fransuz tilida: *On voit quelquefois sur le visage une quantité prodigieuse de mouches, et elles disparaissent toutes le lendemain*. Tarjimada: Ba‘zan ayollarning yuzlarini xollar qoplab olganligini ko‘rib qolasiz, ertasiga esa xollardan asar ham qolmaydi. Muttarjim aslyatda ifodalangan un quantité prodigieuse-ko‘plab miqdorda jumlasini tushirib qoldiradi, natijada, fransuz modasining nozik konnotativ jihati o‘quvchiga to‘liq yetib bormaydi. Fransuz o‘quvchisi uchun elles disparaissent iborasi pashsha singari yo‘qoladi, degan ma‘noni beradi. O‘zbek muttarjimi tarjimasida mazkur ma‘no interpretatsiyasi aks etmagan. Maktubda ifodalangan un moule qui donne la forme metaforasi qirol va millat o‘rtasidagi aql-idrokning bir-biriga muvofiq kelishini obrazli tasvirlaydi. Fransuz tilida: *L’âme du souverain un moule qui donne la forme à toute les autres*. Tarjimada: Hukmdorning qalbi qolip misol boshqa barcha qalblarni shakllantirib turadi. Tarjimada muttarjim so‘zma-so‘z tarjima prinsipini qo‘llagan. Agarda tarjimaga germeneytik jihatdan yondashilsa, mazkur ibora tarjima tiliga mos metaforaga almashtirilishi mumkin.

Demak, tarjima meyori nuqtai nazaridan muttarjimning badiiy matn parchasini tushinishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchilikning mavjud bo‘lishi tabiiy. Shu nuqtai nazardan yozilish uslubi va davri bilan farq qiluvchi falsafiy asarning tarjimada qayta yaratilishida aslyat mazmunini reflektiv anglashsiz adekvat tarjimasiga erishish qiyin. Asarda qo‘llanilgan stilistik figuralarning tarjimada adekvatligiga erishishda quyidagi tarjima usullari samarali ekanligi aniqlandi: sharq madaniyati va falsafiy qarashlarining uslubiy-bo‘yoqdor leksikasining tarjima jarayonida berilishi an‘anaviy, izohlangan yoki vazifaviy muqobillik, moslashtirish, o‘chirib tashlash, so‘z qo‘shish, eksplikatsiya kabi transformatsiya usullaridan foydalanilgan.

ADABIYOTLAR

1. Гак В.Г., Мурадова Л.А. Новый большой французско-русский фразеологический словарь. – М.: Русский язык медиа, 2005. – С.120.;
2. Рахматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. – Т.: Фан, 1966. – Б.88.Delisle, Jean (1993). La traduction raisonnée. – Ottawa : Presses de l’Université d’Ottawa. – P.120.
3. Тимофеев Л. Состоялась ли интеграция науки о литературе? // Вопросы литературы. – 1982. – №9. – С. 236-247.
4. Швейцер А.Д. Критерии адекватности перевода // Тетради переводчика. – № 18. – М.: Международные отношения, 1979. – С. 27-34.
5. Dictionnaire Larousse: définitions, expressions, synonymes tchador n.m. (mot persan) Pièce d’étoffe servant à cacher le bas du visage ou à couvrir la tête des femmes dans certaines circonstances: Les femmes musulmanes portent un voile. Paris: Educa Books, 2018. – 1760 p.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдли: 80 000 дан ортик сўз ва сўз бирикмаси. тахрир хайъати, Э. Бегматов ... [et al.] А. Мадвалиев тахрири остида. Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 2015. – 679 б.
7. Delisle, Jean (1993). La traduction raisonnée. – Ottawa: Presses de l’Université d’Ottawa. – P.120.
8. Montesquieu Lettres persanes. – Paris Editions Gallimard, 1966. –437p.; Мотескье. Форс номалари. – Тошкент:Қаторгол-Камолот, 1999.– 304 б.